



# Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

*Maktabgacha va maktab  
ta'limi vaziri*

**HILOLA UMAROVA:**

*„Bugun chalinadigan  
so'nggi qo'ng'iroq sadolari  
bir umrga yuragingizdan  
joy olishiga ishonaman.  
Uning jarangdor sadolari  
hamisha beg'ubor yoshlik  
va o'quvchilik davringizni  
yodga solib turishi  
shubhasiz.*



<b>Nigora Xaytaliyeva.</b>	
O'zbek shoiralari she'riyatida obraz va ramziylik.....	43
<b>Наталья Петрухина.</b>	
Специфика воплощения родового карамазовского начала в романе достоевского «Братья карамазовы».....	47
<b>Насиба Ниязова.</b>	
Узбекская лирика военной поры в творческой палитре Гафура Гуляма .....	49
<b>Mukhlisakhon Okhunova.</b>	
The concept of the human in novel "Night and day" by Cho'Ipon.....	52

### ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA

<b>Muxlisa Sabirova.</b>	
Internet matnlarida varvarizmlarning qo'llanishi.....	56
<b>Shirin Sadikova. Shirin Sharasulova.</b>	
O'zbek tilini intensiv o'qitishda tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan matnlarni tanlash va qo'llash usullari.....	58
<b>Shaxista Buranova.</b>	
O'quvchilar nutqidagi mahalliy sheva sharoiti ta'siridagi xatolar tahlili va bartaraf etish usullari .....	61
<b>Rayxona Tillayeva.</b>	
Adabiy ta'lim jarayonida badiiy matn ustida ishlash metodologiyasini takomillashtirish .....	64
<b>Malika Ergasheva.</b>	
Jismoniyl imkoniyati cheklangan o'quvchilarga ingliz tilini o'qitishning samarali usullari .....	67
<b>Shaxobiddin Abdullayev.</b>	
Tiktok, twitter, instagram: ularning zamonaviy tildagi rolini taqqoslash .....	69
<b>Малуда Исманова.</b>	
<b>Муслима Жабборова.</b> Особенности работы с билингвами	
при изучении русского языка .....	71
<b>Руниза Шакирова.</b>	
Сравнительный анализ традиционных и вербально- графических технологий обучения языку .....	75
<b>Регина Раджапова.</b>	
Практическое применение приемов «диаграмма венна», «двуухастный дневник» при изучении темы «стилистическая система русского языка».....	78
<b>Xolbuta Xujanov.</b>	
Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish metodikasi .....	81
<b>Manzura Orziyeva.</b>	
Dars samaradorligini oshirishda interfaol usullarning o'rni .....	83
<b>Musharraf Abdulxayeva.</b>	
<b>Yulya Lutfullina.</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda yozma nutqni shakllantirishda ona tili o'qitish metodikasi fanining o'mni .....	86

### Tadqiqotlar

<b>Mohira Umarova.</b>	
O'zbek tilidagi realiyalar hamda ularning urdu tilidagi tarjimalarda ifodalanishi.....	89
<b>Ravshanjon Madumarov.</b>	
O'zbek tilida tanbehni ifodalovchi nolisoniy vositalar .....	91
<b>Shaxlo Qurbonova.</b>	
Kelajak va ezgulikka ishonchning yo'qolishi – "Yo'qotilgan avlod"ning eng mudhish fojiasi sifatida .....	93
<b>Ra'no Rajabova.</b>	
Alla janri stilizatsiyasi.....	96
<b>Gavhar Rustamova.</b>	
Daraxtlar bilan bog'liq obrazlarning diniy-ilohiy manbalardagi ifodasi .....	98
<b>Barnoxon Shamsiyeva.</b>	
Tarjimada adaptatsiyaga murojaat.....	100
<b>Muyassar Navruzova.</b>	
Kasallik va tibbiyot bilan bog'liq toponimlarning til va madaniyat nuqtayi nazaridan tadqiqi xususida.....	102
<b>Dilnoza Sobirova.</b>	
Tibbiyotga oid reklama matnlarida uslubiy figuralarning o'rni .....	105
<b>Nodir Ramazonov.</b>	
<b>Gulbika Sultanova.</b>	
"Shum bola" asarining nashrlararo ba'zi leksik va uslubiy tafovutlari.....	108
<b>Alisher Parmonov.</b>	
Kinoyaning nutqiy faoliyat elementi sifatidagi umumiy xususiyatlari .....	111
<b>Shahnoza Muhammadiyeva.</b>	
Milliy uyg'onish davri adabiyoti rivojida Abdulla Avloniy ijodining ahamiyati.....	114
<b>Nargiza Uzoqova.</b>	
Abdulla Avloniy ijodida ilm talqini.....	116
<b>Guli Qodirova.</b>	
Abdulla Avloniy she'riyatini 5-sinf o'quvchilariga o'rgatishning zamonaviy usullari: "Vatan" she'ri misolida .....	118
<b>Dilso'z Tursunova.</b>	
Gadoiy she'riyatining vazn xususiyati.....	120
<b>Dilfuzaxon Saidqodirova.</b>	
Terminning so'z sifatidagi leksik ma'nosi .....	122
<b>Saida Mamatkulova.</b>	
<b>Zebogul Nazirjonova.</b>	
Inligiz tilida grammatic normadan chetga chiqishlar: lingvistik tahlil.....	124
<b>Дилбар Дуйсабаева.</b>	
«Қара» концептісінің әлеуметтік-мәдени метафорикасы.....	126
<b>Амина Фаттахова.</b>	
Академическое письмо как фактор формирования научной идентичности.....	129

## O'ZBEK TILIDAGI REALIYALAR HAMDA ULARNING URDU TILIDAGI TARJIMALARDA IFODALANISHI (XX ASR O'ZBEK NASRI NAMUNALARI ASOSIDA)

**Annotatsiya:** mazkur maqola tarjimashunoslik fanining eng murakkab jihatlari, mavzularidan biri bo'lgan – milliy kolorit, milliy xos so'zlar mavzusiga bag'ishlanadi. Unda so'nggi yillarda tarjimashunoslik sohasida mazkur mavzuga bag'ishlangan tadqiqotlar, tadqiqotchilar hamda milliy xos so'zlar o'zi nima ekanligi haqida so'z boradi. Bundan tashqari, maqolada mashhur o'zbek yozuvchisi G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasi hamda uning urdu tiliga qilingan tarjimasi o'zaro chog'ishtirilib o'rganilgan. Bunda asosan, milliylikni tarjima asarlarda ko'rsatib beruvchi birliklar – kishi ismlari hamda kiyim-kechak, mato nomlari bilan bog'liq misollar keltirilgan va ularning urdu tilidagi tarjimalari tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** *milliy kolorit, milliy xos so'zlar, realiyalar, transliteratsiya, tarjima, antroponomimlar.*

**Аннотация:** данная статья посвящена одному из самых сложных аспектов и тем переводоведения - национальному колориту, национально-специфическим словам. В ней рассматриваются исследования, исследователи и национально-специфические слова, которые проводились в переводоведении в последние годы. Кроме того, в статье сравнивается рассказ «Шум Бола» известного узбекского писателя Гафура Гуляма и его перевод наурду. В данной статье в основном приводятся примеры, связанные с единицами, указывающими на национальность в переводных произведениях - антропонимами и названиями одежды и тканей, и анализируются их переводы наурду.

**Ключевые слова:** национальный колорит, национально-специфические слова, реалии, транслитерация, перевод, антропонимы.

**Annotation:** this article is devoted to one of the most complex aspects and topics of translation studies - national color, nationally specific words. It discusses the studies, researchers, and nationally specific words that have been conducted in translation studies in recent years. In addition, the article compares the story «Shum Bola» by the famous Uzbek writer Gafur Ghulam and its translation into Urdu. In this article, examples are mainly given related to units that indicate nationality in translated works - personal names and names of clothes and fabrics, and their translations into Urdu are analyzed.

**Key words:** *national color, national words, realities, transliteration, translation, anthroponyms*

Millat bor ekanki, milliylik bor. Milliylik – har bir millatga xos bo'lgan, ungagina tegishli bo'lgan birliliklar yig'indisi.

Milliylik – juda keng tushuncha. U har bir jabhada namoyon bo'ladi. Xoh u kiyim-kechaklar bo'lsin, xoh u yegulik bo'lsin, barida milliylik mavjud. U bir millatni boshqa millatdan ajratib turadi.

So'nggi yillarda milliylik ko'p tadqiqotlarning bosh mavzusiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, tarjimashunoslik va tilshunoslik sohalarida tadqiqotchilar ko'p izlanishlarini aynan ushbu mavzuga bag'ishlamoqdalar. Xususan, tarjimashunos X.Hamidov o'zining bir qator tadqiqotlarda shu mavzuni ko'targan. Bundan tashqari, N.Xodjayeva ham bir qator izlanishlarida turli xil xos so'zlar – realiyalarni o'rganadi. N.Ismatullayeva esa, o'z tadqiqotida ikki ekvivalent siz leksika – "lakuna" hamda "realiya"larni o'zaro taqqoslab tadqiq etgan. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan barcha ilmiy ishlar tarjimashunoslik sohasida amalga oshirilgan bo'lib, eng qizig'i hamda qimmatlisi shuki, tadqiqotlarning barchasi biron-bir sharq tili hamda o'zbek tilini (yoki aksincha) o'zaro qiyoslab yoki chog'ishtirilib o'rganilgan sanaladi.

Mazkur maqolada ham o'zbek milliy xos so'zları, ya'ni realiyalarning urdu tiliga qilingan tarjimalarda qanday aks etganligi haqida so'z borgan. Maqolaga

adabiy manba sifatida esa G'afur G'ulomning "Shum bola" asari tanlangan. Mazkur o'z ichida o'zbek milliy koloritini to'liq aks ettirgan asarni urdu tiliga mohir tarjimon Sharof Mirzayev muharrirligi ostida Manzar Salim amalga oshirgan.

Har qanday millatning milliy o'ziga xosligini ifodalovchi eng asosiy unsurlar – bu milliy taom nomlari, kiyim-kechak, antroponomimlar, toponimlar, cholg'u asboblari, flora va fauna hamda shu kabilardir. Bu kabi so'zlar jamlanib, milliy koloritni yuzaga keltiradi. Jumladan, yirik tarjimashunos olim E.Ochilov bu bo'yicha quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan: "...ana shu milliy kolorit bilan bog'liq bo'lgan so'z va atamalar realiyalar, boshqacha aytganda, milliy xos so'zlar deyiladi"1. Demak, milliy xos so'zlar o'zbek va rus tarjimashunosligida "realiya" deb nomlanadi.

Tarjima asarda milliylikni ifodalovchi birliliklar ko'p, ularni to'g'ri, ma'nosini saqlagan holda tarjima qilish tarjimonning mahoratiga, so'z boyligiga bog'liq sanaladi. Quyida asarlardan realiyalarga bog'liq misollar keltirilgan:

... salotti shim deysizmi, poymapoy sag'ri kavush de yiszimi, biror yetti yilgina kiyilgan, asli matoi nima ekanligi ma'lum bo'limgan guppi deysizmi, Mallaxon zamonidan qolgan mursak deysizmi.... [Sh.B.58]

<sup>1</sup> Очилов Э. Таржимашуносликнинг назарий масалалари. – Тошкент, 2014. 87-6.

سیپیوں کے پتوں گھرے کے جڑے کے جو تے یا پھر درونہ  
دار جو غم جسے اس کے ملک نے زیادہ سے زیادہ  
سال بھر پہنا بوگا اور حالت یہ بو گئی ہے کہ اندازہ تک  
نبین لگایا جاسکتا کہ کس کبڑے سے سلا گیا تھا، یا پھر  
اس ٹوپی کو دیکھئے جو اپنی نوعیت کی نہایت بی  
نایاب چیز ہے۔ نایاب اس نے کہ اسے مشرق سے لے  
کر بھیرہ کیسین توک، سارے علاقے کی توبیوں کا جد  
امجد قرار دیا جا سکتا ہے۔ اور بڑھی عورتوں کے لئے  
سلے جانے والے اس "مرساک" کو تو دیکھئے جس  
کی آستینیں صرف کہانیوں توک پہنچتی ہیں اور جو غا  
مولہ خان [سرگزشت ایک لڑکے کی ۲۳۔ ص۔ [بلان  
کے زمانے سے تعلق رکھتا ہے۔

Keltirilgan jumlada ham bir nechta erkak va ayollar kiyim nomlari aks ettirilan:

*Salloti shim – ushbu so'zning asosi – bu ruschadagi soldat so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "salloti shim" askarlar kiyadigan shim. Uning urducha tarjiması so'zmaso'z tarjima qilingan va o'z ifodasini to'g'ri topgan: "سیپیوں کے پتوں" – "sipohiylarning shimi" singari tarjima qilingan. So'zma-so'z tarjima orqali ma'no yetkazib berilgan.*

*Poyma-poy sag'ri kavush – "Sag'ri – Otning sag'ri terisidan tayyorlangan, kavush uchun ishlatalidigan ko'n, charm". Urdu tilida ushbu oyoq kiyim nomi ham "گھرے کے جڑے کے جو تے" – so'zma-so'z "Otning terisidan tayyorlangan poyabzal" deb o'rinni tarjima qilingan va oyoq kiyim nomi tarjimada so'zma-so'z tarjima usuli orgali ifodalangan.*

*Guppi – "Qalin paxtali chopon, to'n". Bu so'z asosan, shevada qo'llaniladi. Uni mutarjim "وہ رونی دار چوغنہ" – "Paxtali chopon/to'n" deya so'zma-so'z o'girgan. Bunda ham ma'no to'g'ri ifoda etilgan.*

*Mursak – "Ayollar kiyadigan yengi kalta ustki milliy kiyim; yengsiz kamzul" sanaladi. "Mursak" hozir ham tadbirdarda, yig'inlarda, yangi kelinlar va umuman, ayollar uchun urf bo'lgan milliy kiyim turi hisoblanadi. Ayollar milliy libosi bilan bog'liq realiyaning urduchadagi tarjimasi اور بڑھی "عورتوں کے لئے سلے جانے والے اس "مرساک" کو تو دیکھئے جس کی آستینیں صرف کہانیوں توک پہنچتی ہیں" – ...*

va yoshi katta ayollar uchun tikiladigan yenglari faqat tirsakkacha yetadigan bu "mursak" ga qarang...". O'TILda "mursak"ning faqat yoshi katta ayollargina kiyishiga hech qanday izoh keltirilmagan. Ammo o'yashimizcha, transliteratsiya – izoh usulidan unumli foydalanilgan holda tarjima amalga oshgan. Faqat izoh ko'p hollardagidek sahifa so'ngida emas, balki gapning

ichida ketgan va bu kitobxonlarga yanada tushunarliroq bo'lishiga xizmat qilgan.

Yuqoridagi misol o'zbek milliy mato turlarining urdu tilida qanday aks etganligi haqida bo'lgan. Asosan, so'zlar "transliteratsiya" usuli orqali tarjima qilinganligini kuzatish mumkin bo'ladi.

Keyingi o'zbek tilidagi realiyalar hamda ularning urdu tilidagi tarjimasiga doir misol:

Samovorchi Asra kal degan xipchadan kelgan, qotma, epchil yigit edi. [Sh.B.]

چائے خانے دار دبلا پتلا نوجوان بے جس کا نام یاروں نے "گنج اسرا" رکھ چھوڑا ہے

Tarjima asari asosan, asliyat tilini bilmaydiganlar uchun mo'ljallanadi. Shu sababli, agar badiiy adabiyotda keltirilgan taxallus, ism yoki familiyalarni tarjimada to'g'ri berilmasa, kitobxon uning ma'nosini tushunmasa, mutarjim o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erisha olmaydi, ya'ni mana shu antroponim ostida yashiringan asl ma'noni yetkazib bera olmaydi. Birinchi misolda keltirilgan "Asra kal" odamlar tomonidan unga berilgan laqab sanaladi. Urdu tiliga bu antroponim transliteratsiya va so'zma-so'z "گنج اسرا" o'girilgan hamda ism va laqab qo'shtirnoq ichiga olingan. Bu bilan uning laqab ekanligiga ishora qilingan. Bu o'rinni bo'lgan va to'g'ri tarjima amalga oshirilgan. Bu laqab personajga adib tomonidan uning tashqi ko'rinishiga qarab berilgan.

Xulosa qilib aytganda, milliy kolorit har bir asarning ajralmas qismi ہے، uni tarjimada adekvat berish har bir tarjimonning vazifasi sanaladi. Chunki har qanday milliylikni ifodalovchi birlik u boshqa millatning ko'zgusi, shu millatni boshqa madaniyatlarga tanishtiruvchi mash'al hisoblanadi. Lekin bu bilan asarni o'ta milliyashtirib yuborish ham o'rinni emas. Sababi, ko'p hollarda kitobxon boshqa millat vakillari hayoti, turmush tarzi bilan tanishish uchun u yoki bu asarni o'qishni boshlaydi. Agar asar o'ta "milliyashtirib" yuborilgan bo'lsa, unda kitobxon tasavvurida o'sha millat haqida noto'g'ri tushuncha hosil bo'lishiga olib kelishi mumkin. Shunday ہے، milliy xos so'zlamni tarjima qilishning eng ma'qul usuli, fikrimizcha, "transliteratsiya+izoh" usuli sanaladi. Aynan mana shu usul kitobxonlarga realiya bilan bog'liq tasavvurni to'g'ri hosil qilishga ko'mak bo'ladi. Bu usul bilan tarjima qilishda realiyaning asosiy unsurlari – agar u kiyim-kechak bo'lsa, andozasi, mato turi, bichimi bo'lsa, taom nomlari bilan bog'liq xos so'zlarda u taomga solinadigan asosiy masalliqlar hamda taomning suyuq yoki quyuqligiga ko'ra tavsiflanishi lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- Очилов Э. Таржимашуносликнинг назарий масалалари. – Тошкент, 2014. 87-6.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2006.
- Фафур Фулом. Шум бола. – Тошкент, 2017.155-б.
- غور غلام. سرگزشت ایک لڑکے کی۔۔۔ تائشند شاخ محفوظ. ۱۹۸۲
- Kholmirzaev T. Urducha-o'zbekcha lug'at – Pokiston: Muqtadira Qaumi Zaban, 2003. 389-b.
- فیروز للغات. جدید ترتیب اور اضافوں کے ساتھ ۱۵۴۴ ص۔ 6.

